



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutliyev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

to the city. For many centuries now, it has withstood various negative environmental influences.

REFERENCES

1. Asanov A.A. Monuments of medieval Khorezm architecture. - Tashkent, Fan, 1997. -- S. 103.
2. R.I.Kholmuradov, B.A. Kirikov. Earthquake resistance of architectural monuments of Central Asia and the Caucasus. Samarkand 1994, p. 84.

XVIII–XX ASRLARDA QORAQALPOG‘ISTON ME’MORCHILIGI VA TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Imamov Quralbay Turganbaevich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, tayanch doktoranti (PhD)

Quralbayimamov94@gmail.com

Madirimov Xushnudbek Alimbayevich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada XVIII–XX asrlarda Qoraqalpog‘iston hududida qurilgan va hozirgacha saqlanib kelayotgan sufiylik maskanlarining tipologik xususiyatlari hamda ularning bugungi kundagi holati tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur yodgorliklarning tarixiy jarayondagi o‘rni, diniy-ma’naviy hayotdagi funksional vazifalari, arxitektura shakllanishi va tipologik ko‘rinishlari yoritiladi. Shuningdek, ularning zamonaviy ahvoli, mavjud muammolari, ta’mirlash va konservatsiya jarayonlari, arxitektura loyihalarini o‘rganish va tahrirlash masalalari ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Ushbu maqola orqali Qoraqalpog‘istonning XVIII–XX asr sufiylik yodgorliklarini keng qamrovli o‘rganish va ularni saqlab qolish muammolariga e’tibor qaratiladi.

Аннотация

В данной статье анализируются типологические особенности суфийских святынь, построенных на территории Каракалпакстана в XVIII-XX веках и сохранившихся до наших дней, а также их современное состояние. В исследовании освещается роль этих памятников в историческом процессе, их

функциональные задачи в религиозно-духовной жизни, архитектурное формирование и типологические проявления. Также с научной точки зрения анализируется их современное состояние, существующие проблемы, процессы ремонта и консервации, вопросы изучения и редактирования архитектурных проектов. В данной статье основное внимание уделяется комплексному изучению суфийских памятников XVIII-XX веков Каракалпакстана и проблемам их сохранения.

Abstract

This article analyzes the typological features of Sufi shrines built in the territory of Karakalpakstan in the 18th-20th centuries and preserved to this day, as well as their current state. The study highlights the role of these monuments in the historical process, their functional tasks in religious and spiritual life, architectural formation, and typological manifestations. Also, their current state, existing problems, repair and conservation processes, issues of studying and editing architectural projects are scientifically analyzed. This article focuses on the comprehensive study and preservation of 18th-20th-century Sufi monuments in Karakalpakstan.

Kalit so'zlar

Sufiylik, madaniy meros, obida, madrasa, me'morchilik, yodgorlik, konservatsiya, ta'mirlash, tipologiya

Ключевые слова

Суфизм, культурное наследие, памятник, медресе, архитектура, памятник, консервация, реставрация, типология

Key words

Sufism, cultural heritage, monument, madrasa, architecture, monument, conservation, restoration, typology

Kirish

Qoraqalpog'iston hududi tarixiy va madaniy merosga boy bo'lib, ayniqsa XVIII–XX asrlarda bu yerda sufiylik bilan bog'liq diniy majmualar faol qurilgan. Ushbu maskanlar islom dini va mahalliy e'tiqodlar asosida shakllanib, xalq hayotida muhim ruhiy va madaniy markaz sifatida xizmat qilgan. Maqola doirasida shu maskanlarning tiplari, ularning asosiy belgilariga tayangan holda tasnifi beriladi. Sufiylik, insonning ma'naviy kamolotga erishishi yo'lidagi ichki sayohatini targ'ib

qilgan diniy oqim sifatida, jamiyatning ijtimoiy va madaniy rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Aynan shu davrda Qoraqalpog'istonda qurilgan sufiylik maskanlari mintaqaning diniy va ijtimoiy hayotida markaziy o'rin tutgan, ularning me'morchiligi esa bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Asosiy qism

Maqolada avvalo Qoraqalpog'istonning XVIII-XX asrlardagi tarixiy va madaniy konteksti yoritilib, bu davrda mintaqada qanday ijtimoiy va diniy o'zgarishlar sodir bo'lganligi o'rganiladi. Keyin esa, sufiylik maskanlarining me'morchiligi va tipologiyasining xususiyatlari, ularning uslublari, maketlari va ichki bezaklari tahlil qilinadi. Ushbu maskanlar, nafaqat o'z davrining me'morchilik namunasi, balki diniy-madaniy hayotning aks-sadosi sifatida ham katta ahamiyatga ega.[7]

Sufiylik maskanlarining Tipologik yondashuv: asosiy turlariga ajratishimiz mumkin.

Ziyoratgoh sifatidagi majmualar.

Bu toifadagi maskanlar avliyolar maqbaralari atrofida shakllangan bo'lib, ular ziyorat va duo qilish markazi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Masalan, Qipchoq tumanidagi Eshon Pir maqbarasi ziyoratchilar uchun muqaddas joy sanalgan

Ilm-ma'rifat markazlari (xonaqoh va madrasa bilan birgalikda).

Ayrim majmualar diniy ta'limotlar o'rganiladigan markaz sifatida xizmat qilgan. Bu majmualarda xonaqohlar, kutubxonalar va madrasalar bo'lgan. Ular sufiylik ta'limoti va tariqatlar faoliyatining markazi hisoblangan. Ushbu bolimni asosiy bolim sifatida ko'rsak ham bo'ladi.

Xotira majmualari.

Ushbu tipdagi maskanlar tarixiy shaxslar yoki voqealarning xotirasiga bag'ishlab qurilgan bo'lib, ular ko'pincha yodgorlik maqbaralari, obidalar ko'rinishida bo'lgan.

Marosim inshootlari.

Ular asosan jamoaviy marosimlar (zikk, ma'naviy yig'inlar) o'tkaziladigan joy sifatida xizmat qilgan. Bu tipdagi inshootlar ochiq hovli yoki yarim yopiq bino shaklida bo'lgan.[5]

Sufiylik maskanlarining o'rganilishi bugungi kunda nafaqat tarixiy va madaniy jihatdan, balki mintaqaning turistik salohiyatini oshirishda ham katta ahamiyatga ega. Bu maskanlarning qiyosiy tahlili orqali, ularning boshqa diniy arxitektura namunalaridan qanday farq qilishini aniqlash mumkin, bu esa me'morchilik tarixini yanada chuqurroq anglashga imkon beradi. Shuningdek, maqolada, sufiylik maskanlarining zamonaviy jamiyatda qanday saqlanib qolganligi va ular bilan bog'liq bo'lgan madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish muammolari ham ko'rib chiqiladi.

Qoraqalpog'iston hududi boy madaniy va tarixiy merosga ega bo'lib, uning o'ziga xos me'morchilik an'analari mintaqaning umumiy madaniy ko'rinishini belgilab bergan. XVIII-XX asrlar davomida Qoraqalpog'istonda sufiylik keng tarqalgan bo'lib, Qoraqalpog'istondagi ko'pgina tumanlardagi XVIII –XX asrlarga mansub bo'lgan obidalar, bugungi kunda bu maskanlar nafaqat diniy obidalar sifatida, balki tarixiy va madaniy yodgorliklar sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.[8]

XVIII-XX asrlarda Qoraqalpog'istondagi sufiylik maskanlarining qurilishidagi rivojlanish jarayonlari va ularning me'morchilikka ta'sirini aniqlash.

Sufiylik maskanlari Qoraqalpog'istondagi qaysi tumanlarida XVIII asrlardan boshlab qurilishlarini boshlaganligini aniqlash.

Sufiylik maskanlarining bugungi kunda qanday saqlanib qolganligini, ularning restavratsiya va konservatsiya jarayonlarini o'rganish. Shuningdek, bu maskanlarning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini baholash.

Tadqiqot natijalari asosida, bu maskanlarning ilmiy va madaniy ahamiyatini belgilash, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadqiqotlarni belgilab olish va turizm uchun kerakli bo'lgan loyihalardan kengdan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu vazifalar orqali tadqiqot Qoraqalpog‘istonning XVIII-XX asrlardagi sufiylik maskanlari me‘morchiligini har tomonlama o‘rganish va uning tarixiy hamda madaniy meros sifatidagi ahamiyatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Qoraqalpog‘iston hududida ko‘p asrlar davomida turli xil dinlar o‘z hukmronligini qilgan, shu singari Islom dini ham o‘z asrining buyuk dinlari qatorida bo‘lib keldi. Islom dini ilmiy tadqiqotchilarning mavzusi sifatida turli soha olimlari – islomshunoslar, faylasuflar, tarixchilar, etnograflar, antropologlar, siyosatchilar va izlanuvchilar shu dinga yaqin bo‘lgan barcha yo‘nalishlarning ko‘pchiligi ilmiy izlanishlar olib borgan, shular singari arxitektorlar ozlarining obyektlaridagi Islom dinining o‘ziga xos tomonlarini o‘ranish, islom me‘morchiligini hozirgi kungacha qanday ko‘rinishda ekanligini bilish va sufiylik maskanlari hozirda qanday ahvolda ekanligini, ularni qanday saqlab qolish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ko‘pchilik olimlarimizning ilmiy izlanishlariga tayana o‘tirib hozirgi kunda Qoraqalpog‘iston hududida saqlangan sufiylik maskanlari juda ko‘plab topiladi, ularning oldi qatorlarida XI-XIII asrlarga oid yodgorliklar ya‘ni “Xalifa Erejep maqbarasi” (Xojali tumani)[1] XV-XVII asrlarga oid yodgorlik undan tashqari “Daukesken” (Qo‘ng‘irot tumani),[2] 1875 “Rizoquli-Mirzo Chimboy shahri ikkita maktab”[3] unda boshqada yozba manbalarda korishimiz mumkun bolgan sufiylik maskanlariga oid bo‘lgan yodgorliklar mavjud.[4]

Qoraqalpog‘istondagi XVIII-XX asrlarga oid tarixi, arxeologik va aritekturaviy yodgorliklarning aksariyati sufiylik maskanlari me‘morchiligi bilan bog‘liq, shunki qaysi arsdagi yodgorliklarni olib qaraydigan bo‘lsak ham ularning ko‘pchiligida diniy bog‘liqliklarni ko‘rishimiz mumkin, misol tariqasida oladigan bo‘lsak Qoraqalpog‘istonning XVIII-XX asrlardagi yodgorliklarning ko‘pchiligida Masjid, Madrasa, Maqbara, Gumbazlarni ko‘rishimiz mu‘mkin.

Yozma manba‘larni ko‘radigan bo‘lsak Qoraqalpog‘istonning birgina Chimboy tumanida 1896 yilda 58 ta madrasa bo‘lib unda 1000 dan ortiq shogirt diniy ta‘lim olgan.[4] Ta‘lim olgan o‘quvchilarning 22 tasi Chimboy tumanidagi madrasalar ro‘yxatiga kiritilgan.[5] Hozirgi kunda yo‘qolib ketish arafasida turgan, chekka

chekka hududlardagi XVIII asrlarga tegishli bo'lgan masjid, madrasalarni ko'rishimiz mumkun. Ushbu ma'lumotlar bir tuman bo'yicha olingan bo'lsa undan tashqari, Qoraqalpog'istonning boshqada tumanlaridagi XVIII-XX asrdagi sufiylik maskanlari me'morchiligiga oid yodgorliklarni juda ham ko'plab uchratamiz.

Qoraqalpog'istonda hozirgi kunda saqlanib qolgan XVIII-XX asrlarga oid yodgorliklardan ko'pchiligi topologik jihatdan juda o'xshash qilib qurilgan. **Xo'janiyoz biy madrasasi yoki "Tas madrasasi"**, ushbu yodgorlik 1841-yilda Xiva xonining ruxsati bilan Qipchoq bek Xo'janiyoz biy tomonidan hozirgi Amudaryo tumanida qurilgan. Tas madrasasi yodgorligi ushbu asrda qurilgan diniy maskanlar bilan qurilish jihatida juda o'xshash qilib qurilgan. ularning masjidlari, xonaqolari, xonalardagi ishki interyerlari va uning loyihalanishi bir-biriga juda o'xshash. Ushbu yodgorlikni topgan olimlar va arxeologlarning ta'kidlashisha ularning tipologik jihatda ushbu asrning sufiylikka oid bo'lgan obykti ekinligini ta'kidlagan.[6] Yodgorlik keyinchalik sovet hukumati tomonidan vayron qilinganligi haqida aytilgan. Ushbu madrasada 20 dan 30 gacha o'g'il bolalar diniy ta'limot olgan. Yodgorlikda Xorazmining shu davrning o'ziga xos ko'rinishdagi madrasasi bo'lganligi haqida, obidaning tarhidan ko'rish mumkin, yodgorlikning ichida ko'pgina xonalarning bo'lganligi ko'rsatilgan. Ushbu yodgorlik hozirgi kunda tashlandiq holga kelib qolgan.

Qoraqalpog'istonda hozirgi Kegeyli (Xalqobod) tumanida yaxshi saqlanib qolgan sufiylik maskanlaridan Ishon qala Kompleksdagi madrasa, XVIII asrda oid bo'lgan yodgorliklardan biri bo'lib, qurilishi jihatidan qaraydigan bo'lsak paxsadan qurilgan, yodgorlikning o'lchamlari yozma manbalarda keltirilishi bo'yicha 68x35 ko'rinishda deya ta'riflangan.[6] Ushbu maqolada Qoraqalpog'istondagi XVIII-XX asrlardagi saqlanib kelayotgan, sufiylik maskanlarining ayrimlarining hozirgi kundagi ahvoli, ularning tarixdagi o'rnini. XVIII-XX asrlarga tegishli bo'lgan yodgorliklarda bor bo'lgan mavjud muammolar, undan tashqari ta'mirlash va konservatsiya qilish masalalari. Yodgorlik hozirda juda achinarli ahvolga kelib qolgan, ushbu hududda

yashab kelgan xalq aytishiga qaraganda, obidaga ko‘p vaqtlar xesh kim e‘tibor qaratmaganligi haqida gapirib otadi.

Obidaga e‘tibor berilib, uni qayta ta‘mirlash ishlari olib borilishi kerak. Yodgorlikning joylashgan o‘rni juda yaxshi o‘rindaligi, turizm uchun ham samarali foydalanishga juda yaxshi imkonini beradi. Yodgorlikning atrofi qabristonga aylantirilgan, mahalliy aholi tomonidan “Ishon qala” qabristoni deb nom olgan. Yodgorlikning atrofi qabristonga aylantirilgan, mahalliy aholi tomonidan “Ishon qala” qabristoni deb nom olgan. XVIII-XIX asrlarning sufiylik maskanlaridan biri bo‘lib, bu yodgorlik 1853-yillarda qurilgan. Yodgorlik o‘z davrdagi boshqa yodgorliklarga qaraganda murakkab va katta diniy markaz vazifasini bajarganligi bilan ajralib turgan, undan tashqari bu joyda qoraqalpoq bolalaridan tashqari turkman, qozoq, o‘zbek, bolalariga ham diniy ta‘lim berganlar. Obidaning o‘quv xonalardan tashqari yirik kitobxonalari bo‘lganligi haqida aytilgan.[4] Hozirgi kunda ushbu yodgorlik katta ochiqlikda bo‘lganligi sababli tabiiy iqlim muammilari yani shamol va boshqa ta’sirlar bilan o‘zining tarixiyligini yo‘qotmoqda.

Suyin ishon madrasasi, yodgorlik juda yaxshi saqlanilgan, madrasani Suyin ishonning o‘zi qurgan degan ma‘lumotlarni eshitsak uning o‘g‘li qayta ta‘mirlangan deya aytilgan.



Suyin ishon madrasasi hozirgi kundagi ko‘rinishi va Xo‘janiyoz biy madrasasi yoki “Tas madrasasi” foto surat Muallif, 1930-yillar. Karlibayeva, 1998, s.58

Yodgorlikning o‘lchamlari 22x28 tashkil qilgan, ularning ichida katta hujra, o‘quv xonasi yonida kichik xonalar ta‘lim olayotgan bolalar uchun yotoqxona vazifasini bajargan. Yodgorlik hozirgi kunda juda ochiq holda qolganligi sababli, ayrim qismlari juda katta zarar ko‘rib kelmoqda.

Yuqorida aytib o'tilgan yodgorliklar bilan bir davrda qurilgan yodgorliklardan biri **Ay Muhammad ishon masjidi va madrasasi**, ushbu yodgorlik qurilish jihatidan boshqalariga ushlab ketadi. Obida xalq orasida Aimbet Ishon deb ham nom olgan bo'lib, Qoraqalpog'istondagi XIX asrning yirik yodgorliklaridan sanaladi. Yodgorlik Qoraqalpog'istonning Chimboy tumanida joylashgan. Aimbet ishon XVIII asrdan yashagan bo'lib yodgorlik 1880-yilda qurilganligi haqida og'izaki ma'lumotlar ham bor. Ay Muhammad ishon masjidi va madrasasi 70 yil davomida dars bergan, keyinchalik bu joylar tashlandiq holda kelib qolgan. yodgorlik hozirgi kunga kelib keng joyda ochiq holda turgan va uni ta'mirlash ishlari qilinmagan.

Ushbu vohadagi yana bir obidalardan biri bu **Xon masjidi, Akjagisdagi "beshta masjid" yoki madrasa** Taxtako'pir tumani aholisi va ayniqsa qadimgi aholi orasida "besh masjid" toponimi keng tarqalgan. Ularni aniqlash bo'yicha turli xil fikrlar mavjud. Agar kimdir ruhoniylarning eng taniqli vakillarini (Imom Ishan, Karakum Ishan, echki Ishan, suyin Ishan, Kumozek Ishan, Aimbet Ishan) chaqirsa, boshqalari ularni Karakum Ishanning besh o'g'li bilan aniqlaydilar. Hozirgi Taxtako'pir tumani hududida joylashgan Oqjag'is o'rog'i atrofida qurilgan beshta masjid nazarda tutilganligi haqida fikr bor. Bugungi kunga qadar madrasa bilan birgalikda qurilgan beshta masjidning hammasi ham saqlanib qolmagan, shuning uchun ularni ba'zan masjid-madrasa deb atashadi. Ularning qurilish vaqti, bizning ma'lumot beruvchilarimizning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning turli davrlariga to'g'ri keladi.biz juda yaxshi saqlanib qolgan ikkita madrasani (beshtadan) o'rganishga muvaffaq bo'ldik: Abdihalik Ishan madrasasi va Nurulloh axun madrasasi.

Qoraqalpog'istonning tumanlarida joylashgan XVIII-XX asrlarga tegishli bo'lgan sufiylik maskanlari bu yodgorliklarning ko'pchiligi o'z davrining yetuk diniy ulamolari tahsil olgan va ularning yetuk insonlar qilib yetishtirgan. Ushbu davrga tegishli bo'lgan yodgorliklar bundan tashqari uchratishimiz mumkin, ularning aksariyati nafaqat sufiylik ta'limoti bilan birga boshqada diniy vazifalarni bajarib kelgan. Yuqorida keltirilgan yodgorliklar qatorida **Kulamet ahuna madrasasi**,

Abdikadir ishon madrasasi, singari yodgorliklar ham mavjud. Yodgorliklar yaqin kungacha xech qanaqa hujjatlarsiz har xil maqsadlarda moslab joriy tiklash, buzish, o'zgartish, ishlari olib borilganligi natijasida yodgorlikning qadimiy holati, uning ko'rinishlari yo'qolib, ichki va tashqi holatidagi, me'moriy ko'rinishlari o'zgargan. XX asrlardagi har xil e'tiborsizlik natijasida yodgorliklarning aksariyati tashlandiq holatga keltirilganligi orqasida, hozirgi kungacha qolmaganligi, ular qarovsiz qolib ketgan va tashlandiq holatga kelib qolgan. Yodgorliklarning tom qismidagi yog'ochlari yo'qolib ketgan, yodgorliklarning ko'pchiligi yomg'ir suvidan, tashqi tasirlardan katta zarar ko'rgan. Yomg'ir suvining ta'sirida ayrim obidalarda, devorlarning qulashi, yemirilishi, o'pirilishiga, tom qisimlarining buzilishlariga sabab bo'lgan.

Xulosa

Qoraqalpog'istonda XVIII–XX asrlarda shakllangan sufiylik maskanlari xalqning diniy-ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan. Ularning tipologiyasi ziyoratgohlar, ilm-ma'rifat markazlari, xotira majmualari va marosim inshootlari sifatida to'rt asosiy guruhda o'rganilishi mumkin. Bunday tasniflash tarixiy yodgorliklarni saqlab qolish va zamonaviy arxitektura uchun namunalar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ходжаниязов Г., Юсупов О. Қарақалпақстандағы мухаддес орынлар. Нукус. 1994
2. Есбергенов Х. Қоңырат Нукус. 1993
3. Риза-Кули-Мирза. Краткий очерк С.37.
4. Карлыбаев М.А К истории ислама у Каракалпаков: Исторические, социальные, этнические и генеалогические контексты
5. В Талдыкской волости 5 медресе, в Бешябской волости - 1, в Кегейлийской волости - 1, в Кунградской волости - 2, в Кукузякской волости - 6, в Ишимской волости - 6, в Нукусской волости - 1..

6. Жданко Т.А. Работы Каракалпакского этнографического отряда ... Сс. 167-171, рис. 16, 17.
7. Карлыбаев М. Полевые записи № за 2009 г. Информатор Полат Бегимов, который передал слова матери – очевидицы событий.
8. Hakimniyazov J., Torenliyazov J., Otegenov H. Jańa dáwirdegi Qaraqalpaqlar tariyxnaması (XVII-XIX ásirdeń ekinshi yarımına shekemgi dáwir), oqıw qollanba Nókis “Qaraqalpaqstan” 2019, -Б. 13-14
9. cyberleninka.ru
10. <https://lex.uz/acts/-25461>

MIZDAXKAN ARXEOLOGIK YODGORLIGINING ARXITEKTURAVIY TAHLILI VA UNING TURIZM INFRATUZILMASIDA QO‘LLANISH ISTIQBOLLARI

Yuldashev Sherzad Baxramovich

Qoraqalpog‘iston davlat universiteti, Arxitektura fakultetini Arxitektura kafedrasida

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasining Xo‘jayli tumani hududida joylashgan Mizdaqxon arxeologik yodgorligi arxitekturaviy jihatdan o‘rganiladi hamda uning zamonaviy turizm infratuzilmasidagi salohiyati tahlil qilinadi. Yodgorlikning tarixiy qatlamlari, me‘moriy shakllanishi, madaniy-ma‘naviy merosi va u orqali barqaror turizmni shakllantirish istiqbollari ochib beriladi. Maqola arxeologik topilmalar, mavjud holat va zamonaviy infratuzilmaviy ehtiyojlar asosida yozilgan.

Kalit so‘zlar

Mizdaqxon, Gaur Qal‘a, arxitektura, arxeologiya, turizm infratuzilmasi, Qoraqalpog‘iston, madaniy meros.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining Xo‘jayli tumani hududida joylashgan Mizdaqxon arxeologik majmuasi — Markaziy Osiyo tarixiy-madaniy merosining eng yirik yodgorliklaridan biri bo‘lib, qadimiy Xorazm davlati urbanizatsiyasi, diniy e‘tiqodlar va arxitektura rivoji haqida muhim ma‘lumotlar beradi. U nafaqat tarixiy